



b TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

Ona tili darslarida matn

5

1-ОКТУАВР О'QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2020-yil. 10-son.

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV

Dilshod KENJAYEV

Maqsudxon YO'LDOSHEV

Qozoqboy YO'LDOSHEV

Nizomiddin MAHMUDOV

Nargiza RAHMONQULOVA

Yorqinjon ODILOV

Mamatqul JO'RAYEV

Nasirullo MIRKURBANOV

Jabbor ESHONQULOV

Valijon QODIROV

Nilufar NAMOZOVA

Lutfullo JO'RAYEV

(bosh muharrir o'rbinbosari)

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA

Nigora URALOVA

Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.

Telefon: (98) 121-74-16,

(71) 233-03-10,

(71) 233-03-45,

(71) 233-03-67.

e-mail: til_adabiyot@umail.uz

web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda muallifarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-muhazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifiga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 2020.18.11. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84¹. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasi. 10, 11 kegl. "PRINT RABEL" matbaa korxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh., Olmazor tum., O'rzoqboev ko'chasi, 35- uy. Buyurtma №:27 Adadi 2800 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

TAVSIYA

Oydin MO'MINOVA. Globallashuv va ta'lrim: o'zbek tilini o'qitishning yangi yo'nalishlari 3

METODIK TAVSIYA

Kolida G'ULOMOVA. Ona til darslarida matn ustida ishlash 5

Iroda ULUGBEKOVA. Integrating languages and other subjects 7

Komila RADJABOVA. Matn bilan ishlash orqali o'quvchilarni salqaro tadqiqotarga tayyorlash 9

ILGOR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Feruzaxon ABDUSALOMOVA. Morfologik ertak 12

Muhabbat YUSUPOVA. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda leksikani boyitish yo'llari 13

Ra'no YUSUBOVA, Yulduz QURBONOVA. Undalmalar va ularni o'rganishda grafik organayzerlardan foydalаниш 14

MULOHAZA

Dono ZULPIYEVA. Talabalarga chet til o'qitishning produktiv metodlari 15

TAHLIL

Sabohat SHUKUROVA. O'zbek va engilz tillarida ergash gapli qo'shma gap turlarini o'qitish muammolari 17

Umid HAMROEV. O'quvchilarning kreativ fikrash ko'nikmalarini rivojlantirish 18

TEACHING ENGLISH

Iroda MIRZAEVA. Analysis of IELTS writing task two criteria 21

TADQIQOTLAR

Nilufar ABDULLAYEVA. Tojik, o'zbek va engilz tillarida mevali o'simliklarning ifodalinish xususiyatlari 23

Oysuluv UROLOVA. Ingliz va o'zbek tillarida uylanish, turmushga chiqish va nikoh bilan bog'liq maqollar semantikasi 25

Zayniddin NARMURATOV. Ingliz va o'zbek tillaridagi ta'lim va ilmga oid maqollarning lingvomadanziy xususiyatlari 28

Muhayyo Hamraeva. Epik asarlarda sohibqiron obrazini yaratish tamoyillari 31

Zulfiya MAMARAJABOVA. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish tamoyillari va metodlari tavsiyi 32

KICHIK TADQIQOT

Zoira RAHMATOVA. O'quv ensiklopediyalarining yaratilish tarixidan 35

Nozima YULDASHEVA. O'zbek tilidagi nutqiy etiketlarning lingvomadanziy xususiyatlari 37

Feruza DJURAYEVA. Sa'lafliz san'atining ilk o'rta asrlar arabxitobalarida qo'llanilishi 38

Shahnozaxon KOMOLOVA. O'zbek va nemis lug'atshunoslik tarixiga bir nazar 40

Iqboloy Adizova. Ifroniy ma'no tajqini tamoyillari 42

Odinaxon SAIDAXMEDOVA. O'zbek tilida jo'nalish kelishigining o'zlashtirilish tajribasidan 44

Farrux Sattarov. Amerika bolalar adaptyotining rivojida Mark Tven ijodining o'rni 46

Kamola HAYDAROVA. Olxo'ri nomlari va ular asosida yasalgan leksik birlirkar 48

ЛУЧШИЙ УЧИТЕЛЬ-ФИЛОЛОГ - 2020

Cигора PAXMONOVA. Воспитательная сила литературы 49

МЕТОДИКА ОПЫТ

Fарҳод PAXMONOV. Как сказать о месте действия? 51

Зулфия МАДАМИНОВА. Как сказать о порядке предметов при счёте? 52

Виктория ДВОРЯШИНА. Согласованное и несогласованное определение в русском языке 53

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Азиза БЕДИЛОВА, Саодат ИСМАИЛОВА. Интерактивное обучение в высшем профессиональном образовании с экономическим направлением 56

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Сожида ДЖУРАЕВА. Использование современных педагогических технологий на уроках русского языка 59

Шоира PAXMONOVA. Поиск новых путей 60

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Шахиста ТАХИРЖАНОВА. Функции антономии в тексте художественного произведения 61

Камила ХАСАНОВА. Понятие неологизма и окказионализма в лингвистике 63

Шахло БОТИРОВА. Роль художественного психологии в метафорической гармонизации реальности человека и жизни 64

К ЮБИЛЕЮ ПОЭТА

Дилфузза МАРУПОВА. У истоков русской психологической прозы 67

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Феруза САФАРОВА. Организация учебного процесса по русскому языку с использованием технологии «Артпедагогика» 69

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Азизхон PAXMONOV. Роль социально-психологической компетенции в подготовке будущих учителей русского языка 71

ОБРАЗОВАНИЕ: ОПЫТ, АНАЛИЗ, РЕЗУЛЬТАТЫ

Дусмурод ДЖУРАЕВ, Мукаффадж САФАРОВА. Факторы формирования нового качества обучения в системе вузовского образования 73

КУЛЬТУРА РЕЧИ И ОБЩЕНИЯ

Рамина ЯГАФАРОВА. Молодежный сленг сегодня 75

ОБСУЖДАЕМ, СПОРIM

Маргарита БУЛЫЧЕВА. На правильном ли пути обучение иностранным языкам? 77

ДУХОВНЫЕ ЦЕННОСТИ

Хандурды МЯТИЕВ. Ценностно-смысловые основы духовно-нравственной культуры личности 78

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

IRFONIY MA'NO TALQINI TAMOYILLARI

Jahonotin Uvaysiy she'riyati mazmun, g'oya, ifoda shakli nuqtai nazaridan o'ziga xos xususiyatlarga ega nodir adabiy meros namunasidir. Uning asarlarini faqat mazmun jihatdan emas, balki badiiy tasvir mutanosibligi, izchilligi, ma'no bilan shaklning uyg'unligi, timsollar olamining rang-barangligi, badiiy san'atlarning qo'llanilish tamoyillari jihatidan ham noyobdir. Shoira ijodining mazkur xususiyatlarini o'rganish asarlarini mohiyatini to'liqroq anglash imkonini yaratadi. Shundan kelib chiqib, mazkur maqolada shoira uslubining shakllanishida istiora san'atining o'rni va vazifasini belgilashga harakat qildik.

Istioraga mumtoz ilmiy risolalarda so'z san'atini ziyyat natlovchi bezak sifatida yuqori baho beriladi. Hatto, taniqli sharqshunos A.N. Veselovskiy istiora tarixini ijodkor uslubi tarixi bilan uyg'un tushunmoqni tavsiya etadi [1].

She'riyatda mazmunni real, aynan tasvirlagandan ko'ra, istioraviy yo'sinda, ko'chma ma'no anglatuvchi birliklar vositasida tasvirlash muhimroqdir. Bu usul, xususan, Sharq mumtoz adabiyoti asosini tashkil etgan irfoniy ma'no va tasavvuf ta'lomi g'oyalari mohiyatini anglash hamda sharplash uchun qulaydir. Din, tasavvuf va adabiyot nazariyasi bo'yicha chuqur bilimga ega Uvaysiy shu sababli ham o'zining ko'plab irfoniy ma'no ifodalangan she'rlarida boshdan oxir istioraviy tasvir shaklidan foydalanadi.

Shayx Ahmad Taroziy "Funun ul-balogs'a" asarida istiorani shunday ta'riflaydi: "Bu san'at ul bo'lurkim, bir lafzeni haqiqiy ma'nodin elitib, yana o'zga erda oriyat tariqi birla keltirurlar:

*Husn evi yuzung chirog'i birla ravshandur mudom,
Topti qadding sarvidin bog'i latofat ehtirom*

[2: 109].

Atoullohu Husayni esa mazkur san'atni yanada batfsilroq izohlab beradi: "Istiora majozning bir nav'idur va majoz haqiqatning ziddidur. Majoz lafzni o'z yasog'indin o'zga ma'noda yasog'u lafz o'shul ma'no orasindagi biror aloqayu munosabatqa asoslanaroq qo'llamoqtin iborattur. Majozning turli navlari bordur. Jumladin, istiora uldurkim, yasoq va iroda etilgan ma'no orasindagi aloqa o'xshashliqtur: sher lafziyu yuraklig' kishi ma'nosidag'idek. Istiora lug'atta oriyatqa olmoqtur. Lafzni o'z yasog'indin o'zgada ishlatmoq bir nimani oriyatqa olg'an yanglig' bo'lg'ani uchun, ani istiora deb atapturlar" [3: 219].

Uvaysiy mutasavvuf shoira. Shu bilan bog'liq ravishda, she'riyatida ko'tarinkilik, emotsiyonallik yyetakchilik qiladi. Ana shu pafosni o'quvchiga yetkazishda esa u ko'pincha istioradan foydalanadi. Shoiraning o'ziga xos uslubining shakllanishida istiora muhim vazifani bajaradi. Jumladan, "Munosib" radifli quyidagi g'azalni

shu nuqtai nazardan kuzatamiz: g'azal oshiqona yo'nalishda. Unda ikki yyetakchi timsol – oshiq va mahbuba kechinmalari tasvirlanadi. Ular bir-biriga parallel tarzda yoritib boriladi. Biror o'rinda yor, oshiq so'zları qo'llanilмаган. Barcha obrazlar ham, tuyg'ular tasviri ham so'zлarni ko'chma ma'noda istifoda etish yo'li bilan ifodalanadi:

*Ey gul, jigarim qoni uzoringg'a munosib,
YUz porali ko'ksum dog'i xoringga munosib.*

Birinchi misrada "ey gul" murojaatida mahbubaga xos go'zallik, nafislik mujassamlashgan bo'lsa, "Jigarim qoni" birikmasida oshiqning ruhiyati, ishq yo'lidiagi riyo-zatu izziroblari o'z ifodasini topadi. Ikkinci misradagi "ko'ngul dog'i va xor" munosabati oshiq ruhiy holatini yanada aniqlashtiradi. Shoira oshiq va mahbuba munosabati, mumtoz adabiyotdag'i an'anaviy ishq riyozatlarini o'ziga xos, yangicha tasvir shakli vositasida ifodalamoqda. Bu esa g'azalga originallik, o'ziga xoslik bag'ishlaysi. Shoira buni istiora san'ati vositasida amalga oshiradi. Asar lirik kirishlarsiz, to'g'ridan-to'g'ri ko'tarinki pafosda ruhiy holat tasviri bilan boshlanadi va oxirigacha shu temp saqlanadi. Tasavvuf ta'lomitida oshiqning asl maqsadi Haq vasliga erishish, vujudining matlab fayziga g'arq bo'lishidan iborat. Buning yo'li esa olis, ma'rifat egallash yo'lidir. Mazkur g'azalda ham oshiqning xuddi shunday bosqichlarni bosib o'tishi, pir ma'rifatidan fayzib bo'lib, ko'nglini poklab Haq fayzidan bahmandlik maqomiga erishish holati tasvirlanadi:

*Tun sog'arida sharbati bedorlig' ichsang,
Mastonaliq' ul chashmi xumoringga munosib.*

Mazkur baytda "tun sog'ari", "sharbati bedorlig'" kabi birikmalar yordamida istiora san'ati yaratilgan. Parchaning mag'zini chaqish uchun, albatta, istioralarining mohiyatini anglash lozim. "Tun sog'ari" jumlesi ko'chma ma'noda. Tunning qorong'ulik, zulmat ma'nosidan kelib chiqib, uni "bexabarlik, g'aflat, dunyo" tarzida talqin etishimiz mumkin. Undan oldingi baytda kelgan "Sarf aylama har bexabara la'il hadising" jumlesi ham fikrimizni oydinlashtiradi. Misra davomida kelayotgan "Sharbati bedorlig'" ichsang jumlesi ham ko'chma ma'noda qo'llanilib, istiora san'atini hosil qilmoqda. "Bedorlik, uyg'otuvchi sharbat", deganda biz tasavvuf ta'lomi g'oyalardan kelib chiqib, solikni komillik sari boshlovchi, oriflik maqomiga ko'taruvchi ma'rifatdan bahramandlikni tushunishimiz mumkin. Shoira baytda, "G'aflatdan ogoh bo'lib, ma'rifat sharobini ichib, mastlik va bexudlik, ya'ni o'zini unutib, o'ziga yetish maqomiga ko'tarilish" dan so'zlamoqda.

So'nggi baytlarda poklanishning uzun yo'lini bosib o'tgan solik ko'nglidagi Haq fayziga bo'lgan umidvorlik tuyg'ulari "dil manzari, tab'i uzor" kabi istioraviy tasvirlar vositasida ifodalanadi:

*Dil manzarini pok etibon muntazir o'lum,
Bo'lg'omyu ekin tab'i uzoringg'a munosib.*

Quyidagi baytda esa shoira she'riyatidagi istioraviy birliklar muallif fikr-g'oyalarini ifodalashda naqadar kenglik va teranlik bag'ishlashi namoyon bo'ladi:

*Bilsang meni jononimi – dehqoni muhabbat,
Muflislarig'a aylag'on ehsoni – muhabbat.*

Ma'lumki, mumtoz adabiyotda mahbuba – jonon bosh obrazlardan. Uni ijodkorlarimiz turli ma'no va g'o-yalarini ifodalashda qo'llashgan. Shundan kelib chiqib, kitobxon ham undan rang-barang tushunchalarni anglaydi. Shoiraning mazkur bayti esa, mumtoz adabiyotdagi yetakchi timsolning mohiyatini oydinlashtiradi. Kitobxonning turli toifalarini bir doira atrofida birlashtiradi. Ularni timsol mohiyati va vazifasini aniqroq anglash maqomiga ko'taradi. SHe'rga bunday ravshanlik baxsh etgan vosita esa "dehqoni muhabbat" birikmasi bilan yaratilgan istiora san'atidir. A.Husayniy "Istiora uldurkim, yasoq va iroda etilgan ma'no orasindagi aloqa o'xhashliqtur..." [3: 219], deb ta'riflagan edi. Ko'rinaradiki, istioraning mazkur xususiyatidan kelib chiqib, shoira mahbuba timsoliga dehqon xarakterini yuklaydi. Dehqon ekib, ulg'aytiruvchi, yaratuvchi zot. U moddiy ne'matlar buniyodkori bo'lsa, mahbuba ko'ngil dehqoni, ma'naviy olam sohibkamoli, muhabbat bog'boni. U o'z "muflis"lariiga faqat ishq ehson etuvchi, ma'rifat, ezzgulikni ko'ngilarda ulg'aytiruvchi, yaxshilik urug'ini ekuvchi sevimli zot. Ko'rinaradiki, shoira qo'llagan birgina o'ziga xos, yanigicha ifoda mumtoz adabiyotdagi eng murakkab, turli bahslarga sabab bo'luvchi, yetakchi obraz mohiyatini aniq va oson anglashimizga ko'maklashadi.

A.Husayniy istioraning she'riyatidagi o'rniga yuqori baho berib, uning ifoda shaklida ham, ma'no-mohiyatda ham muhim ziynat bag'ishlashini ta'kidlaydi: "Istiora, balki umuman majoz yiroq bo'lmay tab'g'a ma'qulu maqbul bo'lsa, so'zning mukammal ziynatidur va fasohat balog'at arbobi qoshinda haqiqattin yaxshiroqtur" [3: 219]. Uvaysiyning "Ishqida" radifli g'azali boshdan oxir istiora san'ati bilan muzayyan bitilgan. Har bir baytda bir nechta istiora qo'llanilgan. Eng muhimi g'azalda qofiya vazifasini bajargan xordurman, afgordurman, zordurman, bedordurman, sardordurman, noldurman, bemordurman, xummordurman, dushvordurman, zunordurman, so'zbardordurman, bozordurman kabi so'zlarning barchasi ko'chma ma'noda – istiora ko'rinishidadir:

*Oh gulrxsora jonon, xordurman ishqida,
Dil aro qon, siynasi afgordurman ishqida.
Kechalar kirdim chaman, vaqt sahar zor ayladim,
Qumriyu ham andalibi zordurman ishqida.*

Ma'lumki, qofiyaning mukammalligi, ohangdorligining o'ziyoq, she'rga joziba bag'ishlaydi. O'quvchi diqqatini fikr-g'oyaning avj nuqtasiga jamlaydi. Shu bilan bir qatorda mazkur so'zda, ijodkor mahorati natijasida, yana bir san'atning ham mohirlik bilan uyg'unlashishi asarni noyob mahsulga aylantiradi. Xususan, Uvaysiyning mazkur g'azali xuddi shunday asarlardan biridir. Hatto, undagi qofiyalarning faqat o'zinigina ketma-ketlikda takrorlasak ham, shoira lirik qahramoni xarakterini namoyon etuvchi noyob bir matn hosil bo'ladi. Chunki unda istiora san'ati vazifasidan kelib chiqib, so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi so'z zamiridagi ham o'z, ham ko'chma ma'noni harakatga keltiradi. Bu esa lirik qahramon ruhiyatini keng qamrovda yoritish imkonini beradi. Asardagi radifdan ("ishqida") ko'rinyaptiki, u ishq talqiniga bag'ishlangan irfoniy g'azal. Solikning butun bosib o'tgan yo'li, riyozatlari, adashishlari, sabru matonatlari barchasi batafsil tasvirlangan. Ijodkorning maqsadi ham xuddi ana shu solikning surati va siyratini chizib berishdan iborat bo'lgan. Irfoniy adabiyotning pinhoniylik xususiyatidan kelib chiqib, shoira maqsadini ro'yobga chiqarish uchun istiora san'atini yetakchi badiiy ashyo darajasiga ko'taradi. Badiiy niyat va ifoda shaklidagi bunday uyg'unlik asarning shohona uslubda yaratilishi ga imkon beradi. Ijodkor ishq oshiqning noyob portretini yaratishga tuyassar bo'ladi. Buni shoiraning o'zi ham maqta' baytda ta'kidlaydi:

*Gar kishi bo'lsa xaridori Uvaysiy ichra bor,
Ul matoyi ramzg'a bozordurman ishqida*

[4: 18].

Ko'rinaradiki, istiora san'ati shoira uslubining shakllanishida, asarlari zamiridagi ramziy-irfoniy ma'nolarning ifodalanishida muhim vosita vazifasini bajargan.

Shoira istiora san'atini namoyon etishda, tabiat hodisalari, ashyolaridan unumli foydalanadi. Asarlari ma'no zamiridagi murakkabliklarni oydinlashtirishda, o'quvchiga oson etib borishini ta'minlashda shoiraga istiora san'ati nihoyatda qo'l keladi.

Uvaysiy she'riyatida zikr etilgani kabi muhim missollar juda ko'p. O'ylaymizki, keltirilgan bir nechtagina namunadayoq, shoira ijodida istiora san'atining o'rni va vazifasi beqiyos ekanligi borasida xulosa chiqarishimiz mumkin.

Ko'rinaradiki, istiora san'ati shoira uslubining shakllanishida, asarlari zamiridagi ramziy-irfoniy ma'nolarning ifodalanishida muhim vosita vazifasini bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.H. Веселовский. Историческая поэтика.- Москва: Высшая школа, 1989.
2. Shayx Ahmad Taroziy. Funun ul –balog'a. – Toshkent: Xazina, 1996.
3. Ataulloh Husayniy. Badoe' us-sanoe'. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981.
4. Uvaysiy. Ko'ngil gulzori. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1983.